

Toshkent farmatsevtika institutida 2020-2021 o'quv yilida ilmiy-innovatsion ishlarini tashkil etish ish rejasi

1

• 2019-2020 o'quv yili yakunlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va nomli stipendiyalarga tavsiya etilgan nomzodlarning xujjatlarini Vazirlik komissiyasiga topshirish

2

• Kafedralar va fakultetlarning 2020 -2021 o'quv yili uchun ilmiy-tadqiqot ishlari rejalarini tahlil qilish va tasdiqlash, reja asosida hisobotlarni 15-dekabrga qadar tayyorlash va tegishli tashkilotlarga topshirish.

3

• Innovatsion rivojlanish vazirligi tomonidan e'lon qilinadigan loyihalar tanlovida kafedra professor-o'qituvchilarining faol ishtirok etishini ta'minlash

4

• Institutda ilmiy tadqiqot ishlarini patentlash, tijoratlashtirish va amaliyotga tatbiq etishga qaratilgan choralarni amalga oshirish

5

• Rivojlangan horijiy davlatlar tajribasi asosida fan doktorlari tayyorlash, monografiya va ilmiy maqolalarni nufuzli horijiy ilmiy jurnallarda chop etilishini ta'minlash, xalqaro va horijiy tashkilotlar grantlarini institutga jalb etish.

6

• Institut huzuridagi ilmiy kengash faoliyati uchun sharoitlarni yaratish, dissertatsiyalarning kafedra yig'ilishlarida va fakultet qoshidagi ilmiy seminarlarda muhokama etilishiga amaliy yordam berish.

7

• Professor-o'qituvchilarning, doktorantlarning horijiy davlatlar va respublika miqyosida o'tkaziladigan ilmiy anjumanlarda faol ishtirok etishini tashkillashtirish. Xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy konferensiyalarni tashkil etish.

8

• Kafedralarning O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi ilmiy-tadqiqot institutlari, ishlab chiqarish korxonalari va OTMLar bilan hamkorligini rivojlantirish.

9

• Doktorantlarning o'z muddatida himoya qilishini ta'minlash, monitoringini olib borish va faoliyatini baholash.

10

• Muntazam ravishda tashkil etiladigan "Innovatsion g'oyalar, ishlanmalar va loyihalar" yarmarkasida faol ishtirok etish.

11

• Institut talabalarining fanlar bo'yicha olimpiadalarini o'tkazish, g'oliblarni respublika bosqichiga tayyorlash va ularning faol ishtirokini ta'minlash.

12

• Institutida OAK tomonidan belgilangan fanlar bo'yicha malakaviy imtihonlarni yuqori saviyada o'tkazish.

13

• Institutning veb sahifasida ilmiy-tadqiqot ishlarining keng yoritib borilishini tashkillashtirish, ilmiy-sohadagi tadbirlar haqida batafsil ma'lumot berib borish.

14

• Institutning O'zR FA O'simlik moddolari kimyosi instituti, O'zR FA Bioorganik kimyo instituti, O'zR FA Umumiy va noorganik kimyo instituti hamda Dori vositalarini standartlash ilmiy markazi (DVSIM) laboratoriyalari bilan hamkorlikda bajarilayotgan ilmiy - tadqiqot ishlarini tashkil etish jarayonini muvofiqlashtirish, uslubiy jihatdan rahbarlik qilish va tadqiqot natijalarini o'quv-ilmiy jarayonga tatbiq etish choralarni ko'rish.